XALQ DEPUTATLARI TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-12-93-6-85-K/25 To‘raqo‘rg‘on tumani

To‘raqo‘rg‘on tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyat hokimligining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7126-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, To‘raqo‘rg‘on tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari 174 mlrd. 356 mln. 956 ming so‘m va xarajatlari esa 174 mlrd. 356 mln. 956 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek To‘raqo‘rg‘on tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 381 mln. 117 ming.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, To‘raqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

2-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2 mlrd. 170 mln. 335 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Soxodillayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Yunusov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Isomiddinov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8.Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Soxodillayev nazorat qilish xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (M.Appaqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KOSIMOV SHERALI ABDUKAXAROVICH**

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-93-6-85-K/25 -son qaroriga
1-ilova

To‘raqo‘rg‘on tuman byudjeti daromadlarining 2026-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so’mda)

№	DAROMAD TURLARI	Jami kontingent prognoz	shundan,				Mahalliy byudjet prognoz
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	**JAMI**	**359 436 106**	**55 776 000**	**303 660 106**	**237 645 000**	**66 015 106**	**174 356 956**
1	Foyda solig‘i	11 923 000		11 923 000	11 923 000		2 384 600
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*	*843 000*		*843 000*	*843 000*		
3	Aylanmadan olinadigan soliq	10 321 000		10 321 000		10 321 000	8 256 800
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	127 557 000	15 832 000	111 725 000	100 228 000	11 497 000	72 885 500
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	716 000	21 000	695 000	245 000	450 000	716 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	39 691 000	6 179 000	33 512 000	33 512 000		3 686 320
6	**Aksiz solig‘i**	**37 763 000**	**11 502 000**	**26 261 000**	**26 261 000**		**7 878 300**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*37 763 000*	*11 502 000*	*26 261 000*	*26 261 000*		*7 878 300*
7	**Mol-mulk solig‘i**	**39 027 000**	**15 947 000**	**23 080 000**	**9 648 000**	**13 432 000**	**23 080 000**
	yuridik shaxslar	*27 247 000*	*15 947 000*	*11 300 000*	*9 648 000*	*1 652 000*	*11 300 000*
	jismoniy shaxslar	*11 780 000*		*11 780 000*		*11 780 000*	*11 780 000*
8	**Er solig‘i**	**53 354 106**	**5 867 000**	**47 487 106**	**17 831 000**	**29 656 106**	**47 487 106**
	yuridik shaxslar	*26 568 000*	*5 867 000*	*20 701 000*	*17 831 000*	*2 870 000*	*20 701 000*
	jismoniy shaxslar	*26 786 106*		*26 786 106*		*26 786 106*	*26 786 106*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3 124 000		3 124 000	3 124 000		3 124 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 602 000	449 000	5 153 000	4 211 000	942 000	3 676 800
11	**Boshqalar**	**30 231 000**		**30 231 000**	**30 064 000**	**167 000**	**1 897 530**

	DUK sof foydasidan ajratmalar	*269 000*		*269 000*	*269 000*		
	Davlat boji	*14 331 000*		*14 331 000*	*14 331 000*		*716 550*
	Yig‘imlar	*4 013 000*		*4 013 000*	*4 013 000*		*441 430*
	Jarimalar	*11 451 000*		*11 451 000*	*11 451 000*		*572 550*
	Davlat mulkini ijarasi	*167 000*		*167 000*		*167 000*	*167 000*

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-93-6-85-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				Yakuniy istemolchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	X	65%	100%	35%	X	20%	100%	80%	X	30%	100%	70%	X	100%	100%	X

Jismoniy shaxslardan mol mulkini ijaraga berishdan				QQS			
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
100%	100%	X	X	X	55%	100%	45%

(Foiz hisobida) (2-ilova davomi)

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurulish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar				Aylanmadan soliq	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB		
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	X	100%	100%	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	X	X	X	100%	100%	80%	20%

(Foiz hisobida) (2-ilova davomi)

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	5%	95%	5%	95%	11%	89%

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-93-6-85-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun To‘raqo‘rg‘on tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatgichlar	To‘raqo‘rg‘on tuman
	To‘raqo‘rg‘on tuman bo‘yicha jami	**174,356,956.0**
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	zaxira jamg‘armasi	2,170,335.0
	mening maktabim dasturi	3,708,000.0
	fuqarolar tashabbus jamg‘armasi	31,891,288.0
1	**To‘raqo‘rg‘on tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo‘limi**	**62,995,061.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	59,287,061.0
	shundan:	
	mening maktabim dasturi	3,708,000.0
2	**To‘raqo‘rg‘on tuman madaniyat bo‘limi**	**6,994,694.0**
3	**To‘raqo‘rg‘on tuman Yoshlar agentligining hududiy bo‘limi**	**7,678,942.0**
4	**To‘raqo‘rg‘on tuman Sport bo‘limi**	**12,774,141.0**
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1,503,267.0**
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**2,763,505.0**
7	**To‘raqo‘rg‘on tuman irrigatsiya bo‘limi**	**2,289,753.0**
8	**To‘raqo‘rg‘on tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2,417,989.0**
9	**To‘raqo‘rg‘on tumani hokimligi**	**53,362,981.0**
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbus jamg‘armasi	31,891,288.0
	Mahalla byudjeti jamg‘armasi mablag‘lari	2,350,000.0
	zaxira jamg‘armasi	2,170,335.0
10	**Hokimlik (Prezident Administratsiyasi huzuridagi muasssasalar)**	**901,278.0**
	shundan:	
	Xalq Qabulxonasi	108,211.0
	Axborot-kutubxona markazi	793,067.0
11	**Hokimlik *(Obodonlashtirish boshqarmasi)***	**20,508,523.0**
12	**Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi (ko‘nikma markazi)**	**166,822.0**